



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI YANGI INKLYUZIV TA’LIMGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSUYATLARI

Kurbanbayeva Malika Urazbayevna

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning yangi inklyuziv ta’lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va takomillashtirish masalalari yoritilgan. Inklyuziv ta’limning mohiyati, uning pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligida ijodiy faoliyatning o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yangi inklyuziv ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchi, ijodiy qobiliyat, pedagogik-psixologik xususiyat, innovatsion yondashuv, kompetensiya.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы формирования и совершенствования творческих способностей будущих педагогов в условиях нового инклюзивного образования. Научно-теоретически анализируются сущность инклюзивного образования, его педагогические и психологические особенности, роль творческой деятельности в профессиональной подготовке будущих педагогов.

Ключевые слова: Новое инклюзивное образование, будущий учитель, творческие способности, педагогические и психологические характеристики, инновационный подход, компетентность.

Annotation: This article discusses the issues of forming and improving the creative abilities of future teachers in the new inclusive education process. The essence of inclusive education, its pedagogical and psychological characteristics, and the role of creative activity in the professional training of future teachers are scientifically and theoretically analyzed.



Key words: New inclusive education, future teacher, creative abilities, pedagogical and psychological characteristics, innovative approach, competence.

KIRISH

Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi sharoitida ta'lim tizimi zamon talablariga mos holda yangilanmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham har bir bola, jumladan, jismoniy, aqliy yoki psixologik imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarga ham sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish bo'lajak o'qituvchilardan nafaqat puxta nazariy bilimlarni, balki ijodiy yondashuvlarni ham talab qiladi.

QONUNCHILIK

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilda **“Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi [PQ-4860](#)-son qarori qabul qilingan edi. Hujjatga ko'ra:

-2020-2025 yillarga xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda – Konsepsiya) va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritasi”;

-alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025 yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi.

I-bosqich 2020-2022 yillarda quyidagilar amalga oshirildi:

- normativ bazani takomillashtirish;
- malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va muassasalarni maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar,



metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta‘minlash;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

- aholi o‘rtasida ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirish;

- alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- inklyuziv ta‘lim tizimini tajriba-sinov tariqasida alohida ta‘lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish.

II-bosqich 2023-2025-yillarda quyidagilar amalga oshirildi va oshirilmoqda:

- inklyuziv ta‘lim tizimini bosqichma-bosqich boshqa umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida joriy qilish;

- alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta‘lim olish huquqini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- o‘qitish usullarini takomillashtirish hamda ta‘lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish;

- o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko‘rish;

- o‘quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta‘lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta‘lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) sonini optimallashtirish.

Qaror ijrosi doirasida inklyuziv ta‘limni joriy qilish huquqqiy, pedagogik, moddiy va ijtimoiy asoslar yaratildi. Bu esa alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning jamiyatga to‘laqonli integratsiyasini ta‘minlash, ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish va inson huquqlari asosida pedagogik-psixologik ta‘lim olish imkonini yaratmoqda.

O‘RGANISHLAR, TADQIQOTLAR VA TAHLILLAR



Inklyuziv ta'lim g'oyasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng yoyila boshladi. Dastlab Yevropa va AQShda nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktablar tashkil etilgan bo'lsa, keyinchalik ularni umumiy ta'lim muassasalariga qo'shish g'oyasi shakllandi. 1994 yilda qabul qilingan Salamanka deklaratsiyasi inklyuziv ta'lim rivojlanishida muhim burilish yasadi. Bugungi kunda inklyuziv ta'lim UNESCO va BMTning asosiy tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Inklyuziv ta'lim – bu barcha o'quvchilarni, ularning imkoniyatlaridan qat'i nazar, umumiy ta'lim muhitiga jalb etishdir. U nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarni, balki ijtimoiy muhitga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladigan o'quvchilarni ham qamrab oladi. Bu jarayon o'qituvchidan moslashuvchanlik, ijodkorlik va individual yondashuvni talab qiladi.

Inklyuziv ta'limning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari ham mavjud. Avvalo, u barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyat yaratishni ko'zda tutadi. Psixologik jihatdan esa, o'qituvchi bolalarning individual rivojlanish sur'atlari va ehtiyojlarini hisobga olishi zarur. O'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish, ijtimoiy muhitda faol ishtirok etishlariga sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda pedagogika oliy ta'lim muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri –inklyuziv ta'lim sharoitida samarali ishlay oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir. Bo'lajak o'qituvchilar nafaqat maxsus metodikani, balki kreativ fikrlashni, psixologik moslashuvchanlikni ham o'zlashtirishlari zarur. Bu jarayon ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyat – bu yangicha fikrlash, noodatiy yechimlarni topish, mavjud muammoni innovatsion usullar bilan hal etish qobiliyatidir. Ta'lim jarayonida o'qituvchining ijodkorligi o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi, ularda yangicha qarashlarni shakllantiradi. Inklyuziv ta'limda bu qobiliyat yanada dolzarb bo'lib, har bir o'quvchiga individual yondashuv imkonini beradi.

Inklyuziv ta'limda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish metodlari ham mavjud. Bular orasida interfaol usullar, muammoli ta'lim, loyihaviy ishlar, ijodiy topshiriqlar



alohida ahamiyatga ega. Masalan, muammoli vaziyat yaratish orqali o'quvchi noodatiy yechim topishga intiladi. Loyihaviy faoliyat esa o'quvchilarda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Xorijiy mamlakatlarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha samarali tajribalar mavjud. Masalan, Skandinaviya davlatlarida barcha o'quvchilar bir xil ta'lim muhitida tarbiyalanadi, o'qituvchilar esa maxsus kurslarda ijodiy yondashuv va differensial ta'lim usullarini o'rganadilar. Bu tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligini yanada kuchaytiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun oliy ta'lim muassasalarida maxsus kurslar, treninglar va seminarlar tashkil etilishi lozim. Amaliy mashg'ulotlarda talabalarning inklyuziv ta'limga oid real vaziyatlar asosida topshiriqlar bajarishi, ijodiy loyihalar ishlab chiqishi ularning kasbiy tayyorgarligini oshiradi.

Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchilarning roli beqiyosdir. Ular har bir bolaning qobiliyat va imkoniyatlarini inobatga olib, individual yondashuv asosida dars tashkil etishi zarur. Shuningdek, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash bo'yicha metodik bilimlarga ega bo'lish, sabr-toqatli, mehribon va empatiyaga ega bo'lish o'qituvchining asosiy kompetensiyalaridandir.

Inklyuziv ta'limda psixologik-pedagogik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning ruhiy va emotsional holatini hisobga olish, ularning o'zini erkin his qilishiga imkon berish, qo'shimcha motivatsiya berish muhimdir. Logoped, psixolog va defektolog kabi mutaxassislar hamkorligi inklyuziv ta'lim samaradorligini oshiradi.

Inklyuziv ta'limni samarali amalga oshirish uchun ota-onalar va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandini qo'llab-quvvatlashi, jamiyat esa bag'rikenglik va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratishi lozim. Shu tarzda maxsus ehtiyojli bolalar o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qiladi.



Inklyuziv ta'lim jarayonida pedagogik yondashuvlar o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning maxsus uslublari, metodlari hamda tashkil etish shakllari bilan belgilanadi: Differensial va individual yondashuv – o'qituvchi o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari, intellektual darajasi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda dars jarayonini tashkil etadi. Moslashuvchan o'quv dasturlari – barcha bolalar uchun yagona dastur ishlab chiqiladi, ammo imkoniyati cheklangan bolalar uchun moslashtirilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar va metodlar qo'llaniladi. Ko'p komponentli metodlar ko'rgazmali vositalar, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Jamoaviy hamkorlik dars jarayonida hamkorlikda o'rganish, guruhli ishlash orqali o'quvchilar o'zaro yordam beradi va ijtimoiylashuv jarayoni rivojlanadi. Ijtimoiy integratsiya – imkoniyati cheklangan o'quvchilarni sog'lom tengdoshlariga qo'shib o'qitish orqali ularning jamiyatga moslashishi ta'minlanadi.

Inklyuziv ta'limda psixologik jihatlar ham alohida ahamiyatga ega. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat: Psixologik qo'llab-quvvatlash – o'quvchilarda o'ziga ishonchni shakllantirish, qo'rquv va komplekslarni yengish uchun maxsus psixologik yordam ko'rsatiladi. Motivatsiyani rivojlantirish – imkoniyati cheklangan o'quvchilarni darslarga qiziqtirish, ularda muvaffaqiyat hissini uyg'otish orqali o'quv jarayonida faol ishtirok etishga rag'batlantirish. Empatiya va tolerantlik – sog'lom o'quvchilarda boshqalarga nisbatan mehr-oqibat, hurmat va bag'rikenglikni shakllantirish. Stress va adaptatsiyani yengish – yangi muhitga ko'nikish, ijtimoiy-psixologik muammolarni hal qilish uchun maxsus trening va mashg'ulotlar o'tkazish. Ijobiy iqlim yaratish – sinf jamoasida do'stona, qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhitni shakllantirish. Inklyuziv ta'limning pedagogik va psixologik xususiyatlari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Pedagogik jihatlar dars jarayonini tashkil etish va metodlarni belgilasa, psixologik jihatlar o'quvchilarning ruhiy holati, motivatsiyasi va jamiyatga integratsiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois, inklyuziv



ta'lim samaradorligi uchun o'qituvchi ham pedagogik, ham psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim.

Jamiyat taraqqiyoti, inson huquqlariga e'tiborning ortishi va ta'limning demokratlashuvi natijasida inklyuziv ta'lim masalasi dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Inklyuziv ta'lim barcha bolalarning, jumladan, jismoniy yoki aqliy imkoniyati cheklangan, ijtimoiy muhitdan chetda qolgan hamda turli xil sharoitlarda yashayotgan o'quvchilarning ham teng huquqli ta'lim olishiga yo'l ochib beradi. Shu nuqtai nazardan, kelajak pedagoglarini bunday jarayonga puxta tayyorlash katta ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, bo'lajak o'qituvchilarning yangi inklyuziv ta'limga tayyorgarligi ularning professional kompetensiyasining muhim tarkibiy qismidir. Chunki ta'lim jarayonida turli ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, individual yondashuvni qo'llash o'qituvchidan yuqori darajada pedagogik mahorat va psixologik sezgirlikni talab qiladi.

Ikkinchidan, o'qituvchining inklyuziv ta'lim bo'yicha bilim va ko'nikmalari ta'lim muassasalarida tenglik, mehr-oqibat va insonparvarlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir bola o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda ta'lim olish huquqiga ega ekanini his qilish o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Uchinchidan, zamonaviy ta'lim jarayoni o'qituvchidan turli pedagogik strategiya va metodlarni qo'llashni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tamoyillarini egallagan pedagog o'quv dasturlarini moslashtirish, maxsus didaktik materiallardan foydalanish, individual o'quv rejalari tuzish hamda ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, psixologik tayyorgarlik ham katta ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilar nogironligi bo'lgan bolalar bilan muloqot qilish, ularning ehtiyojlarini to'g'ri anglash va ruhiy qo'llab-quvvatlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur. Bu



esa ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratadi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlash: ta'limda ijtimoiy adolatni ta'minlash; bolalarning jamiyatga integratsiyasini yengillashtirish; pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish; ta'lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda muhim omil hisoblanadi.

O'rganishlar asosida quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

-Oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limga oid fanlarni joriy etish, jumladan "Inklyuziv ta'lim asoslari", "Maxsus pedagogika", Inklyuziv psixologik tayyorgarlik" kabi fanlarni majburiy va amaliyotga yo'naltirilgan tarzda o'qitish;

-talabalarning aniq va maqsadli o'quv-uslubiy materiallarini tayyorlashda inklyuziv ta'lim bo'yicha metodik qo'llanmalar, didaktik vositalar va modellangan darslar tayyorlanishi va oliy ta'lim muassasalariga tarqatilishini ta'minlash;

-talabalarning inklyuziv ta'limni amalda kuzatish va ishtirok etishlari uchun tajriba-sinov maktablari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

-inklyuziv ta'limdan dars beruvchi pedagoglarni dasrdan uzilmagan holda onlayn malaka oshirish kurslarida malakasini oshirish amaliyotini yo'lga qo'yish;

-bo'lg'usi o'qituvchilarni nogironligi bor bolalar bilan muloqot qilishi, ularni qabul qilish va qullab-quvvatlashga o'rgatish uchun amaliy psixologik darslar, treninglar simulyatsiya mashg'ulotlarini o'tkazi amaliyotini joriy qilish;

-xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarni o'quv dasturlairga integratsiya qilish, xorijiy ekspertlar ishtirokida seminar va treninglar o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish.

XULOSA

Yangi inklyuziv ta'limda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish o'quvchilarni faqat bilimli emas, balki mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi. Pedagogik jarayonda interfaol metodlar, ijodiy loyihalar, art-terapiya, axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali barcha o'quvchilarning imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish mumkin. Demak, yangi inklyuziv ta'lim



nafaqat bilim berish, balki ijodkorlikni shakllantirish orqali har bir bolaning hayotiy muvaffaqiyatiga yo‘l ochib beradi. Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalar uchun insonparvar, adolatli va teng imkoniyatli ta’lim tizimini yaratishdir.

O‘zbekistonda bu boradagi islohotlar izchil davom etmoqda. Kelgusida bu tizimni yanada takomillashtirish uchun xalqaro tajribadan foydalanish, ta’lim dasturlarini moslashtirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish zarur. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limga tayyorlash nafaqat ularning kasbiy rivoji uchun, balki jamiyatda bag‘rikenglik, insonparvarlik va tenglik tamoyillarini qaror toptirish uchun ham muhimdir. Bu esa o‘z navbatida kelajak avlodni barkamol, ijtimoiy faol va mehribon insonlar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Qonunchiligidagi yangiliklar
https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/alohida_talim_ehtiejlari_bulgan_bolalar_uchun_inklyuziv_talim_joriy_etiladi?utm_source=chatgpt.com
2. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha xalqaro tashkilotlar (UNESCO, UNICEF) tavsiyalari.
3. Qodirova N. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2019.
5. Ismailova Dilafruz Muhiddinovna. (2020). Цели современного образования, формирующие требования к преподавателю. Журнал научных и прикладных исследований, (11), 12-14.
6. Jabborova Onakhon Mannopovna. (2019). Psychological and Pedagogical Foundations of the Formation of the Artistic Perception of Students in Secondary Schools. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(10), 9-14.